

## IMOM UL-MUHADDISIYN HAQIDA

**Mamasidiqov Fazliddin Muzaffar o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti,

Ijtimoiy fanlar fakulteti, Tarix yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, IX asrda hadis ilmida katta muvoffaqqiyatlar qozongan, musulmon dunyosida “amir al-mo‘minin” nomiga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy va uning “Al-Jome’ as-sahih” asari xaqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zi:** Imom al-Buxoriy, Buxoro, hadis ilmi, “Sahihi-Buxoriy”, musofirlik, Hijoz, Makka, Madina, Samarqand, Xartang, yodgorlik, xalqaro markaz, axloq, oila.

Hadis<sup>6</sup> ilmida sahih<sup>7</sup> yo‘nalishning asoschisi, yetuk va mashhur muhaddis Imom al-Buxoriy musulmon dunyosida “Amir ul mo‘minin”, “Imom al muhaddisiy” deya ta’riflangan istedodli, ziyrak olim, ustozlari va do‘stlari orasida ilmi orqali xurmat qozongan o‘tkir zehin sohibi hisoblangan.

Imom al-Buxoriyning asl ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba’zan imom al-Muhaddasiy (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba’zan amir ul-mo‘miniyn fi-l-hadis (hadis ilmining amiri, sultoni) va nabasi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdur.

Imom al-Buxoriy ilm-fan va madaniyat ravnaqida azaldan mashhur bo‘lgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Mana shu muhtasham shahar – Buxoroi sharifda 194-xijriy sana, shavval oyining 13-kunida saloyu-ul-jum’adan keyin (810-millodiy sana 21-iyul) jami muhaddislarning imomi, Payg‘ambar (s.a.v)ning muborak hadislariga durdonasimon sayqal berib, ularni abadul abad barxayot qilgan zot imom al-Buxoriy dunyoga kelgan<sup>8</sup>.

<sup>6</sup> Hadis - arab tilida “xabar, xikoya” ma’nosini anglatadi. Bu so‘zga sinonim tarzida “Sunnat” so‘zini ham qo‘llaydilar va u arabchada “yo‘l, odat, xabar” ma’nolarini bildiradi.

<sup>7</sup> Sahih – ishonarli hadislar.

<sup>8</sup> Uvatov U. O‘zbekiston- Buyuk allomalar yurti. – Toshkent: Ma’naviyat-Movaraunnahr, 2010. – B. 8.

Imom al-Buxoriy 10 yoshidan boshlab hadislarni o‘rgana boshlaydi. 11 yoshidan esa ba’zi ustozlarining xatolarini topa boshladi. Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Xotamal-Varroq shunday deb yozadi: “Al-Buxoriyning “Hadislarni yod olish ilhomi menga boshlang‘ich maktabda o‘qiyotganimda kelgan edi”, – deganini eshitganimda, “O‘shanda necha yoshda edingiz?” – deb so‘radim. U “10 yoshda, balki undan ham kichik edim”, – deb javob bergandi”<sup>9</sup>. Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, Imom al-Buxoriy juda yoshligidan boshlab hadislarni yod olib, bu mashg‘ulotga alohida zavq-shavq va qiziqish bilan qaragan.

Al-Buxoriy hadis ilmini dastlab Buxoroda o‘rganishga kirishdi. Bu shaharda yashagan muhaddislar Muhammad ibn Sallom al-Poykandiy (777-839) va Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy al-Ju’fiy (843-yili vafot etgan) dan hadis ilmini o‘rganib, ko‘p hadislarni yod oldi<sup>10</sup>.

Manbalarda yozilishicha, al-Buxoriy balog‘at yoshiga kirguncha o‘z davrining barcha mashhur kitoblarini to‘liq o‘rganib chiqqan, 16 yoshida akasi Ahmad va onasi bilan xaj safariga yo‘l olgan. U Balx, Basra, Kufa, Bog‘dod, Xums, Damashq, Qohira, Makka va Madina kabi yirik shaharlarda mashhur olimlardan islom ta’limotini, ko‘proq hadis ilmini o‘rgandi.

Al-Buxoriy musofirlik hayotining ko‘p qismini Makka va Madina shaharlarida o‘tkazdi. Bu yerda ilm olish bilan bir vaqtda o‘zining asarlari uchun ma’lumot to‘play boshladi. Suriyalik olim Jamoliddin al-Damashqiy o‘zining “Al-Buxoriy hayoti” asarida allomaning: “O‘n sakkizga kirganimda “Saxobalar va tobeinlarning muammolari”ni keyinroq esa “Katta tarix”ni yozdim. O‘sha vaqtda Madinai Munavvarada Payg‘ambar alayhissalom qabrlariga yaqin joyda yashardim. Asosan oydin tunlarda yozuv bilan mashg‘ul bo‘lardim. Tarixda men bilmagan nom juda kam edi. Lekin kitob uzayib ketishini istamadim...”, degan so‘zlarini keltiradi. Bu ma’lumot al-Buxoriyning ilm-fan yo‘lidagi katta g‘ayrat va shijoatidan darak beradi.

Al-Buxoriy qaysi shaharga bormasin, asosiy maqsadi ilm o‘rganish bo‘lib, o‘sha yerdagi shayxlar, olimu fozillar xuzurida turgan. Masalan, al-Buxoriy arab xalifaligi

<sup>9</sup> Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009. – Б. 9.

<sup>10</sup> Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009. – Б. 25-26.

poytaxti Bog‘dodga sakkiz marotaba borgan va har safar fiqhshunos olim Imom Ahmad ibn Xanbal xuzurida mehmon bo‘lib, hadis ilmidan saboq olgan. Imom al-Buxoriy “Men hadislarni 1080 ta muhaddisidan yozib oldim” – deb xotirlaydi o‘z asarlarining birida.

Oradan yillar o‘tib, u o‘z yurti Buxoroga qaytgan. Buxoro xalqi ham buyuk muhaddisni mamnun kutib olgan. Bu yerda al-Buxoriy talabalarga hadis ilmidan dars bergan.

Buyuk muhaddisning so‘nggi kunlari xaqida Abu Toxirxo‘ja Samarqandiy o‘zining “Samariya” asarida shunday yozadi: “.....u Xartangga (hozirga Poyariq tumani) kelib turdi. Shu yerda Haq rahmatiga vosil bo‘ldi... Imom Muhammad 256-yilda (milodiy 869-yil) Ramazon hayitining kechasi xufton namozidan keyin vafot etdi”<sup>11</sup>.

Mustaqillik sharofati bilan Imom Buxoriyga yuksak ehtirom sifatida Samarqandning Chelak tumani Xartang qishlog‘ida Imom al-Buxoriy yodgorligi majmui barpo etiladi. Ushbu yodgorlik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq allomaning maqbarasi o‘rnida barpo etildi. Majmua 1998-yida ochilgan. Yodgorlik majmui avvalo ziyoratgoh, qadamjo, so‘ng kundalik, juma, hayit namozlari o‘qiladigan joy vazifasini o‘taydi. Umumiy maydoni 10 ga ni tashkil etadi. Majmuada maqbara, mamuriy bino, masjid, kutubxona, ilmiy xodimlar xonasi va boshqa yordachi honalar mavjud. Masjid va peshayvonida 1500 gacha kishi namoz o‘qishi mumkin. Masjid ichidagi mehrobning o‘ng tomoniga O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovga Saudiya Arabistoni podshohi Faxd ibn Abdul Aziz tuxfa qilgan kisva – kabapush parchasi osib qo‘yilgan<sup>12</sup>.

Shuningdek, Buxoriyning boy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida 1998-yil 4-noyabrda Imom Buxoriy xalqaro markazi tashkil etildi.

<sup>11</sup> Самарқандий Абу Тохирхўжа. Самария. – Т.: Мерос, 1991. – Б. 58.

<sup>12</sup> Ислон энциклопедияси. – Т.: ЎЗМЭ, 2004. – Б. 110.

Imom al-Buxoriy avlodlarga qimmatli va boy ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, u yozgan asarlarning soni 20 dan ortiqdir. Musulmonlar diniy idorasi kutubxonasida allomaning “Al-Jom’ as-Sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “At-Tarix al-Kabir” (“Katta tarix”), “At-Tarix as-Sag‘ir” (“Kichik tarix”), “Al-Qiroatu xalifa-l-Imom” (“Imom ortida turib o‘qish”), “Raf’ul-yadani fis-Saloti” (“Namozda ikki qo‘lni ko‘tarish”) kabi asarlariing qadimiy nusxalari mavjuddir.

Imom al-Buxoriyning “At-Tarix al-Avsat” (“O‘rta tarix”), “At-Tavsir al-kabir” (“Katta tafsir”), “Al-Jome’ al-Kabir” (“Katta to‘plam”), “Kitobul-Xiba” (“Hadiya kitobi”) kabi katta va kichik xajmlardagi bir qator kitoblar yozganligi tarix kitoblaridan ma’lum<sup>13</sup>.

Imom al-Buxoriyning islom olamida mashhur qilgan va buyuklikka olib chiqqan asari shubxasiz, “Al-Jome’ as-Sahih” (“Ishonarli to‘plam”) bo‘lib, “Sahihi Buxoriy” nomi bilan ham mashhur. Ushbu asarni Buxoriy 16 yil davomida yozadi. Uning g‘oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom Buxoriygacha o‘tgan muhaddislar o‘z to‘plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o‘tirmay kiritaverganlar. Imom Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo‘lib, ularni ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratgan. Al-Buxoriyning shogirdlari ta’kidlashicha, ul kishi yuz mingta sahih (ishonchli) va ikki yuz mingta nosahih (shubhali) hadisni yoddan bilgan hamda “Al-Jome’ as-Sahih” ni tahminan olti yuz mingta hadislar orasidan saralab olgan<sup>14</sup>.

Alloma Ibn Saloh (1245-yil vafot etgan) ta’kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaydigan xolda esa 4000 hadisdan iborat<sup>15</sup>.

Al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asari sunniylar tomonidan e’tirof etilgan “Sihohi sitta” (“Olti sahih kitob”) ning birinchisi hisoblanadi.

Islomshunoslarning yozishicha, “Al-Jomi’ as-Sahih” oldingi hadis to‘plamlaridan ko‘ra mohirona tuzilgan. Muallif zamondoshlarini juda qiziqtirgan

<sup>13</sup> Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009. – Б. 31.

<sup>14</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O’. Vatan tarixi. – №1. — Toshkent: Sharq, 2010. – B. 187-189.

<sup>15</sup> Носиров К. IX-X асрларда Ўрта Осиё мутафаккирларининг ахлоқий тарбия ҳақидаги ғоялари (Ал-Бухорий ва ал-Форобий асарлари мисолида). – Т.: Фан, 2000. – Б. 58-59.

qonunchilik va odatlarga tegishli bo'lgan hadislarnigina emas, balki Muhammad alayhissalom va sahobalar tarjimai xoliga, xattoki, payg'ambar yashagan davrning tarixiy va etnografik jihatlariga oid hadislarni ham jamlagan.

“Al-Jome' as-Sahih”da payg'abarimizning hadisi shariflari “Iymon”, “Tahorat”, “Namoz”, “Zakot”, “Haj”, “Nikoh”, “Taloq”, “Savdo-sotiq kitobi”, “Sulh kitobi”, “Vasiyat kitobi”, “Dastlabki yaratilish” (ya'ni “Olamning paydo bo'lishi”), “Jihad”, “Maloikalar haqida”, “Suv haqidagi hikmatlar” kabi 100 ta bobga bo'lingan. Har bir bobda mavzuga doir hadisi shariflar ishonchli roviylar manbai bilan keltiriladi.

Imom Buxoriy to'plamlariga kiritgan hadislar faqat islom ta'limotiga doir umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, sahiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halolikga da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Ularda nima yaxshi, nima yomon, nima qilish kerak, nimadan o'zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimmiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l yo'riqlar, pand-nasihah va o'g'itlar aks ettirilgan.

“Sahihi-Buxoriy”da oila masalasi – er va xotin, ota-ona va farzand, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar xaqida ko'plab ibratli hadislar keltirilgan. Xususan,

Adab kitobi, 2-bob. Yaxshi muomala qilinishiga kim haqliroq?

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: “Bir odam Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib: Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilishimga kim haqliroqdir?” – deb so'radilar. Janob Rasululloh “onang!” – deb aytdilar. U: “Yana kim?” – deb so'radilar. Janob Rasululloh: “Onang!” – dedilar. U “Yana kim?” – dedi, Janob Rasululloh (bu safar): “Otang!” – deb javob qildilar.

3-bob. Ota-onasi rozi bo'masa, jihad qilmaydi.

Abdullohibn Amr rivoyat qiladilar: “Birodam Nabi sallallohu alayhi va sallamga: Jihad qilmoqchiman”, – dedi. Janob Rasululloh: “Ota-onang bormi?” –

dedilar. U “Ha” deb aytdi. Janob Rasululloh: “(Avval) ota onangning xizmatini qilib, rozi qilgin, so‘ng jihod qilgin!” – dedilar”<sup>16</sup>.

11-bob. Qarindoshlariga beoqibat kishining gunohi haqida.

Jubayr Ibn Mut’im Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning “Qarindoshlariga oqibatsiz odam jannatga kirmaydi” deganlarini eshitgan ekanlar<sup>17</sup>.

24-bob. Yetim boqqan odamning fazilati.

Sahl ibn Sa’d rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz” – deb ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini juft qilib ko‘rsatdilar”<sup>18</sup>.

Buyuk mutafakkir va muhaddis Imom al-Buxoriy o‘z asarlarida inson axloqi masalasini keng yoritib bergan. Olim insonni ahloqiy yetuklikka erishmog‘i uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni birma-bir sanab o‘tar ekan, har kim saqlanishi lozim bo‘lgan va insonni tubanlik, tanazzul sari tortuvchi illatlarni ham yaqqol ko‘rsatib beradi. Imom al-Buxoriy merosidagi inson ahloqiga oid fikrlarni faqatgina ibodat yoki diniy amallar, deyish xatodir, chunki u sanab o‘tgan fazilatlar umuminsoniy qadriyatlardan bo‘lib, ular butun bashariyat tomonidan tan olingan va har bir inson uchun zarurdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ислом энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ, 2004.
2. Носиров К. IX-X асрларда Ўрта Осиё мутафаккирларининг ахлоқий тарбия ҳақидаги ғоялари (Ал-Бухорий ва ал-Форобий асарларн мисолида). – Т.: Фан, 2000.
3. Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009.
4. Самарқандий Абу Тохирхўжа. Самария. – Т.: Мерос, 1991.

<sup>16</sup> Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg’ani Abdulloh tarjimasini. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririya, 1992. – B. 55. www. Ziyouz.com kutubxonasi.

<sup>17</sup> Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg’ani Abdulloh tarjimasini. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririya, 1992. – B. 58. www. Ziyouz.com kutubxonasi.

<sup>18</sup> Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg’ani Abdulloh tarjimasini. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririya, 1992. – B. 61. www. Ziyouz.com kutubxonasi.

5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg'ani Abdulloh tarjimasi. – T: Qomuslar bosh taxririyyati, 1992.

6. Uvatov U. O'zbekiston- Buyuk allomalar yurti. – T: Ma'naviyat-Movaraunnahr, 2010.

7. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O'. Vatan tarixi. – №1. — Toshkent: Sharq, 2010.

